

## JADID NAMOYONDALARINING TURKISTON IJTIMOIIY - SIYOSIIY VA MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

**Marimov Muzaffar Erkinovich**

Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

[muzaffarmarimov700@gmail.com](mailto:muzaffarmarimov700@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Arabcha “yangi”, “yangilik degan ma’noni anglatuvchi jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va diniy oqim edi. Bu harakat zamonaviylik muammolari va Markaziy Osiyo jamiyatlarida islom an’analari, ta’lim va madaniyatni modernizatsiya qilish ehtiyojlari asosida paydo bo’ldi. Ushbu maqolada milliy taraqqiyparvarlarimizni faoliyati, ularning Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga tasiri haqida so’z boradi.*

### KALIT SO‘ZLAR

*Jadid, Turkiston, Qur’on, Sho’roi Islomiya, Ittifoq, Turkiston muxtoriyati, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, musulmon, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix.*

### АННОТАЦИЯ

*Джадидизм, что в переводе с арабского означает «новый», — общественно-политическое, культурное и религиозное движение, оказавшее значительное влияние на общественно-политическую и культурную жизнь Туркестана в конце 19 — начале 20 веков. Это движение возникло на основе проблем современности и необходимости модернизации исламских традиций, образования и культуры в обществах Центральной Азии. В данной статье рассказывается о деятельности наших национальных разработчиков и их влиянии на общественно-политическую и культурную жизнь Туркестана.*

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

*Джадид, Туркестан, Коран, Шурай Исламия, Союз, Туркестанская автономия, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлани, Муслим, математика, физика, химия, медицина, история.*

### **ABSTRACT**

*Jadidism, which means “new” in Arabic, is a socio-political, cultural and religious movement that had a significant impact on the socio-political and cultural life of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. This movement arose based on the problems of modernity and the need to modernize Islamic traditions, education and culture in Central Asian societies. This article describes the activities of our national developers and their influence on the socio-political and cultural life of Turkestan.*

### **KEY WORDS**

*Jadid, Turkestan, Koran, Shuray Islamia, Union, Turkestan Autonomy, Mahmudhoja Behbudi, Abdullah Avlani, Muslim, mathematics, physics, chemistry, medicine, history.*

### **KIRISH**

Jadid namoyondalarining fikricha islom dini shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyat rivojida muhim o'rin tutgan. Shu sababdan ham ular oddiy aholi orasida islom dini qonun qoidalarini to'g'ri talqin etilishiga erishmasdan turib boshqa muammolarni bartaraf etishning iloji yo'qligini anglab yetgan edilar. Ana shu maqsadda 1909-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy, 1910-yilda Abdulla Avloniy, 1915-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan islom dini tarixiga bag'ishlangan asarlar yaratildi. Ushbu asarlarda ular islom dinining paydo bo'lishi va tarqalishining eng muhim bosqichlarini yoritib berdilar, shuningdek, islom qonun qoidalarining noto'g'ri talqin qilinishiga qarshi chiqdilar. Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islom dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarni, shariat qonun qoidalarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish, yosh avlodni ilimli qilish va eng asosiysi o'lkani ijtimoiy-siyosiy, madaniy jihatdan yuksaltirish kabi tadbirlar bor edi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqotda Jadidchilik harakatining tarixiy tashkil topishi jadid namoyondalarining o'lkani ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga tasiri obyektiv yoritib berildi. Bugungi kunda yosh avlodni vatanga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda jadidchilar maktabi va ularning faoliyatlarini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot jarayonida Abdulla Avloniyning “Tarjimai xol” Tanlangan asarlar 2-jildlik, Munavvarqori Abdurashidxonning “Qizil O'zbekiston” nomli asari va J.Toshqulovning “Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi” metodologik manba sifatida olindi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jadidchilik harakati namoyondalari musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning ilm egallashlari ularning zimmasiga burch qilib qo'yganligini keng targ'ib qildilar. Jadidlar ilm-fanni taraqqiyotning va rivojlanishning asosiy yo'naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisobladilar. Ularning fikriga ko'ra chin musulmon bo'lish uchun diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni, ayniqsa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarni bilishlari zarur deb hisoblangan. Buni muqaddas Qur'on oyatlari va hadislar asosida tasdiqladilar.

Jadidlarning islomga oid g'oyalari ularni islomning asosiy ta'limotini o'zgartirishga intilganlar, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Sababi ular o'z faoliyatlarida Qur'onni ham, umuman, butun islom ta'limotini ham to'g'ri izohlab berganlar. Ularning barchasi islom diniga va musulmon an'analariga sodiq edilar. Ular islomga putur yetkazadigan urf-odatlariga, jamiyat rivojiga va taraqqiyotiga halal beradigan salbiy ko'rinishdagi holatlarga qarshi chiqdilar. Jadidlar johillikni tugatishga, xalq orasida ezgulikka undovchi g'oyalar uyg'otishga intildilar.

Jadidlar o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o'ziga xos qarashlarga ega edi. Taraqqiyparvarlar o'z faoliyatlari davomida o'lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasb-kori, shart-sharoitlaridan xabardor bo'lganlar. Xalqning ahvoli yildan yilga og'irlashib borayotganligini angladilar. Ularning fikricha, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlamay turib, siyosiy va huquqiy erkinlikka erishish mumkin emas edi. Buning uchun birinchi navbatda yerni, yerosti va yerusti boyliklarini, suvni Turkiston xalqlarining umumiy boyligi deb e'lon qilish, barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash, zavod va fabrikalar qurib, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarishni zarur deb bildilar. Umuman olganda jadidlar o'lkani har tarflama rivojlantirish mamlakatni va xalqni taraqqiyotga olib chiqishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Shu maqsad yo'lida jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniya va Turkiyaga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g'oyalarini ilgari surdilar. Ularning sa'y-harakatlari bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o'qib kelishiga ketadigan xarajatlari uchun mablag'lar yig'ildi. O'lkada va xorijda savdo sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilindi. Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri, Toshkentning "Qoryog'di" mahallasidan bo'lgan Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja Rossiyada huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha

ta'lim olib, birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advokati bo'ldi. U buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgan.

Turkiston jadidlari XX asrning boshlaridagi dunyoda ro'y bergan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. Bu davrda xorijdagi siyosiy partiyalarning dasturlarini va faoliyatlarini tahlil qildilar. Shu vaziyatda taraqqiyparvarlar o'zbek xalqining tinchliksevarligi, bosiqigidan kelib chiqib, barcha muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga intildilar, chunki ular qonli to'qnashuv va urushlarga qarshi edilar. 1917-yildagi Rossiya fevral voqealari arafasida Turkistonda boshlangan jadidchilik harakati kuchli siyosiy harakatga aylandi. Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, Davlat Dumasiga o'lkaning aholi sonidan kelib chiqib o'rin ajratish, milliy matbuot erkinligi va so'z erkinligini ta'minlash kabi talablarni ilgari surdilarlar. Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, "Sho'roi Islomiya", "Ittifoq" kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytda jadidlar mahalliy aholining barcha qatlam vakillarini o'z ortidan ergashtira oldilar. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholini ma'rifatli qilishga, ularda milliy o'zlikni anglashning kuchayishiga, ozodlik va vatan taraqqiyoti uchun kurashlarning ko'tarilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda jadidchilik harakati o'lkada podsho hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ldi. 1917-yil mart oyi boshlarida jadidlar tomonidan Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilot – "Musulmon markaziy sho'rosi" tuzildi. Uning ta'sis syezdida 350 delegat qatnashgan. Ular orasida ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar kabi boshqa musulmon xalqlarining vakillari ham bo'lgan. Syezdda barcha delegatlar bo'lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva va Turkiston general-gubernatorligi kirishi kerak degan fikrni ma'qulladilar. Biroq Turkistonda 1917-yildagi oktabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi jadidlarning o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi Qo'qonda bo'lgan, Turkiston muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublika e'lon qildilar. 72 kun yashagan bu muxtor respublika sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada jadidlar ta'qibga uchradi va oxir-oqibat, 1937–1938-yillarda qatag'on qurboni bo'ldilar.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jadid namoyondalari o'z davrining har tarflama yetuk shaxslari bo'lganlar. Ular millatni, xalqni ongini, bilimni dunyoqarashini shakllantirmasdan turib taraqqiyotga va mustaqillikka erishib bo'lmasligini yaxshi

tushunib yetgan edilar. Shu maqsad yo'lida ular o'z jonini ham ayamadan harakat qildilar. Jadidlar o'z intilishlari va g'oyalari bilan Turkistonni ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga juda katta tasir ko'rsatdilar. O'z navbatida jadidlar mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan eng bilimli, ongli, dunyoqarashi keng millat ko'zgulari edilar.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat".
2. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyo uz. Com.
3. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T., "Sharq", 2004.
4. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi // Xalq va demokratiya, 1992, 3-4-son.
5. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018.
6. Baxrom Irzaev. "O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim" T., "Akademnashr" 2018.
7. Behbudiy B. "Tiyotr nadur", "Oyina" jurnali, 1914 yil 10 may, №29. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018.
8. Sabirdinov A. O'zbek romanchiligi; kecha va bugun. Izlanishlar samarasi. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2005 yil 28 yanvar.
9. Behbudiy B. "Ikki emas, to'rt til lozim", "Oyina" jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr, -2018.